

F.T.Egamberdiev, M.O.Esonova, J.X.Xamraqulov, M.F. Egamberdiev



IQTISODIY TAFAKKUR
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ
ECONOMIC THINKING

UDK: 811.212

BBK: 84.34 E-94

Taqrizchilar:

**X.P.Abulqosimov – I.F.D., Prof.
N.G.Muminov - I.F.N., Dots.**

Iqtisodiy tafakkur. Aforizmlar to'plami. Tuzuvchilar: F.T.Egamberdiev, M.O.Esonova, J.X.Xamraqulov, M.F. Egamberdiev. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. – T.: "ABABIYOT UCHQUNLARI" 2018 -230b.

Ushbu aforizmlar to'plami iqtisodiy munosabatlarni nazariy jihatdan o'rganishda jahon tajribasidan kelib chiqib, iqtisodiy kategoriyalar, bozor iqtisodiyotining qonuniyatlari, amal qilish mexanizmi, iqtisodiy jarayonlar dinamikasini o'zlashtirishni engillashtirish, iqtisodiy nazariya fanining mazmunini chuqurroq tushunishga yordam berish maqsadida tayyorlangan. To'plamda iqtisodiyotdagi asosiy masalalar, muammolar, etakchi nazariy maktablar, yo'nalishlar va ularning namoyandalari fikrlari keltirilgan. Unda iqtisodiyot nazariyasi fanining o'quv dasturida o'rganish ko'zda tutilgan barcha mavzulari qamrab olingan.

Qo'llanma oliy o'quv yurtining barcha yo'nalishlardagi bakalavrlari va iqtisodiyot nazariyasi fanidan dars beruvchi o'qituvchilarga mo'ljallangan. Shu bilan birga undan magistratura talabalari, tadqiqotchilar va hozirgi zamon iqtisodiyotining muammolarini o'rganishga qiziquvchi barcha o'quvchilar foydalanishlari mumkin.

UDK: 811.212

BBK: 84.34 E-94

ISBN-978-9943-5257-3-3

«ADABIYOT UCHQUNLARI» 2018

SO'Z BOSHI

Mamlakatimizda ro'y berayotgan islohotlar kishilar ongi va ruhiyatiga ham tub o'zgartirish yasamoqda: yangicha fikrlash, bozor iqtisodiyotini idrok etish va uning talablari ruhida ishlash va yashashga intilish qaror topmoqda. Ko'zda tutilgan ulkan maqsadlarga erishish uchun iqtisodiyotda katta o'zgarishlar talab etiladi. Bu jarayonlarni chuqur tushunishda birlamchi manbalarning o'rni katta. Ushbu kitobda jamiyatning iqtisodiy negizi, uning tarkibiy qismlari, iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarning mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning amal qilish qonuniyatlari, bozor iqtisodiyotining tarkib topish xususiyatlari, o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari, iqtisodiy o'sish va unga ta'sir etuvchi omillar, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tendentsiyalari kabi masalalarni qamrab olgan. Ushbu to'plam jamiyatning har bir a'zosini g'oyaviy jihatdan yo'naltirish, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirishga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur kitob jahon iqtisodiyoti fani erishgan nazariy yutuqlar, iqtisodiyot nazariyasi fanining mantiqiy tuzilishidan kelib chiqib har bir mavzuga oid nazariy masalalarni yoritishda O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish tajribalari va muammolari uzviy bog'liqlikda olib qaraldi. Iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda har bir mavzularda milliy g'oya va milliy mafkura, milliy iqtisodiyot va milliy manfaatlarni hisobga olish nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi.

Har qanday sohada tafakkur bu kuchli boshqotirma, chunki uni yuzaki o'qib bo'lmaydi, har bir hikmatli so'zning mag'zini chaqish va angab etish uchun anchagina aqlni ishlatish zarur. Tafakkur insonlar inonadigan tushunchalar, chunki har bir inson nima yaxshiyu, nima yomon, nima odobga kiradiyu, nima kirmaydi degan savollarga javobni hech qachon eskirmaydigan, asralar donoligi tafakkur egalari fikrlaridan axtaradi.

Ushbu to'plam uch xil tilda berilganligi sababi talaba yoki keng o'quvchilar ommasi tomonidan xorij tillarini o'rganishda amaliy ko'nikma hosil qilishda yordam berishi mumkin.